

ONA TILI DARSLARIDA MATNLAR BILAN ISHLASHDA INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI

*Samarqand viloyati Urgut tumanidagi
65-umumta'lim maktabining oliv toifali o'qituvchisi
Abrorova Orzigul*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda ona tili fanini o'qitishda matnlar bilan ishlashda qo'llaniladigan zamonaviy, innovatsion, interfaol metodlar hamda ta'lif sifatini oshirishga qaratilgan turli xil pedagogik texnologiyalarning ahamiyati aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion metod, FSMU, matn bilan ishlash, tezkorlik, fikrlash mantiqi.

Bugungi kunda ona tili darslarida matn bilan ishlashni o'quvchilarga o'rgatish muhim sanaladi.

Matn bilan ishlashda, nutq faoliyati uchun, shuningdek o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. O'quvchilar nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. O'quvchilar nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo'lib, o'quvchi nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

3. O'quvchi tushunadigan so'z, so'z birikmalari, gap, nutq a'zolari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan

qurollantirish hisoblanadi. O‘quvchilarga matnlar ishlashda nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o‘z tajribasida foydalanish natijasida o‘quvchilarda ta’lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda shakllanadi.

Bugungi kunda ona tili darslarida matnni o‘quvchilarga o’rgatishda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xush, innovatsiya nima? Nega ona tili darslarida foydalanish lozim?

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg‘un unsurlami kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o‘zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to‘liq foydalaniladi. [1] Interfaol metodlar- bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: - Talabaning dars davomida befarqi bo‘lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish; - Talabalarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlash; - Talaba talabaning bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi; - Pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi.[2] Tadqiqotchilar (AL. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Aziezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o‘rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o‘zaro ta’siri mikrosathi. [3] Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g‘oya yoritiladi. Ikkinci yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangilarning o‘zaro ta’siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o‘rnini ikkinchisi egallashidir. Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konseptsiyasini farqlaydilar. Bu konseptsiya yangilik kiritishga nisbatan o‘lchanadigan jarayon

ekanligidan kelib chiqadi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o'quvchilarning yuksak bilim cho'qqilarini egallab, ularni fikrlashga, o'z shaxsiy va mustaqil qarashlarga ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o'qituvchi dars o'tishdan oldin darsda qo'llaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o'rganishi va tadqiq qilishi lozim.

Dars jarayonida bu texnologiyalarni tanlay bilish - bu o'qituvchining mahoratiga bog'liq FSMU texnologiyasi munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki dars yakunida (o'quvchilarning o'quv-seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanishi mumkin, chunki bu texnologiya o'quvchilarning o'z fikrini himoya qilishga, mustaqil va erkin fikrlash, o'z fikrini boshqalarga asosli ravishda ifoda etishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchilarning o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda o'quvchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. [5]

FSMU metodida o'quvchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Ushbu FSMU texnologiyasi bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqichda: -o'qituvchi o'quvchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;

-o'qituvchi darsda avval har bir o'quvchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi, va nihoyat, dars oxirida jamoa bo'lib ishlanishi haqida o'quvchilarga ma'lumot beradi;

-dars davomida har bir o'quvchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkinligi eslatib o'tiladi.

2-bosqichda: -har bir o'quvchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F (fikringizni bayon eting);

S (fikringiz bayoniga sabab ko'rsating);

M (ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring);

U (fikringizni umumlashtiring). -Har bir o‘quvchi yakka tartibda tarqatilgan qog‘ozdagи FSMU ning 4 bosqichini o‘z fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘ldiradi.

3-bosqichda: -har bir o‘quvchi o‘z qog‘ozlarini to‘ldirib bo‘lgach, o‘qituvchi ularni kichik guruhlarga bo‘linishlarini iltimos qiladi yoki o‘zi turli guruhlarga bo‘lish usullaridan foydalangan holda o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib yuboradi;

-o‘qituvchi har bir guruhga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi;

-o‘qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog‘ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo‘yicha yozilishini taklif etadi.

4-bosqichda: -kichik guruhlarda avval har bir o‘quvchi o‘zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a’zolarini tanishtirib o‘tadi. Guruh a’zolarining barcha fikrlari o‘rganilgach, kichik guruh a’zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;

-guruh a’zolari FSMU ning 4 bosqichini har biri bo‘yicha umumlashtirib uni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radilar;

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir o‘quvchi o‘z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5-bosqichda: -kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarni himoya qiladilar: guruh vakili har bir bosqichni alohida o‘qiydi (iloji boricha izoh bermagan holda). Ba’zi bo‘limlarni isbotlashi, ya’ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o‘tishi mumkin.

6-bosqichda: -o‘qituvchi darsga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi;

7-sinf ona tilidan adabiyot darsligidagi matnlar bilan ishlashda FSMU texnologiyasi orqali darsni olib borsak yaxshi natijalarga erishamiz. Masalan: O‘lmas Umarbekovning “Qiyomat qarz” asarida qanday gaplar va tinish belgilarini aniqlashimizda foydalanishimiz mumkin.

F (fikringizni bayon eting); Asardagi gapning turlari, soni va nechta tinish belgilari ishtirot etgani haqida o‘quvchilar fikrlarini bildiradi.

S (fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating): gapning mazmuni, ta'rifi turlari va shakliga ko'ra tuzilishi haqida aytib o'tiladi.

M (Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring):

U shunday deb otning jilovini tortdi(darak gap)

Qir-piringda podangni boqib yuravermaysanmi?(so'roq gap)

U (Fikringizni umumlashtiring): Yuqorida keltirilgan umumlashtirib aytildi.

Ona tili datslarida o'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashishga yo'naltiradi, eng asosiysi, ularning o'qishga, fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Hozirgi zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik darslar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijobiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shayxislamov N. (2021). ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH MASALALARI. The 21st Century Skills for Professional Activity,(6) 160- 162.
2. Qosimova K., Matchonov S. "Ona tili o'qitish metodikasi".
3. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent-2009.
4. Yo'ldoshev J. Ilg'or pedagogik texnologiya. – Toshkent, Fan-2004.
5. Hamidov A. Yangi pedagogic texnologiyalar. – Toshkent-2004.

Internet manzillar:

1. WWW. uzedu.uz
2. Ziyonet.uz
3. olimpiada.uz